

MAKTABDA XULQI OG‘ISHGAN BOLALAR BILAN ISHLARNI TASHKIL ETISHDA PSIXOOGIK YONDASHUV

Djumaniyazova Iroda Baxtiyarovna

Xorazm viloyati Urganch tumani 19-umumiy o‘rta ta’lim maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi tarbiya, ota-onaning farzandlarga ko‘rsatadigan ta’siri, ta’lim-tarbiya tizimidagi hamkorlik, ota-onalar uchun tavsiyalar haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, biologic, fiziologik, psixologik, ijtimoiy yondoshuv, inqirozlar, patologik o‘zgarishlar, referent guruhlar, norasmiy va kriminal guruhlar.

O‘smir shaxsi xarakteridagi og‘ishlarni shakllanishi ularning tiplarini aniqlash tibbiy psixologik va tibbiyot pedagogik ishlarni aktiv olib borish zarurdir. Bizning asosiy maqsadimiz aziz o‘quvchilarga tarbiyasi “qiyin” o‘smirlar xarakteridagi xarakter aktsentuattsiyasining va uning tiplari o‘smirlik davridagi deviant xulq – atvor va uning klassifikatsiyasi tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar yuritimiz. Xulqi og‘ishganlikni analiz qilishda biz avvalo mediko – psixatrik tomoniga alohida e’tibor berishimiz kerak bo‘ladi. Chunki bu bolaning xarakter xususiyatlarining o‘zgarishiga olib keladi. Avvalo psixoteriya klinik fan bo‘lib, ruhiy kasalliklar sababi kechishi, davolanishni o‘rgatadi. Biz o‘smirlarni mediko – psixatrik ko‘rinishini aytganimizda avvalo psixopatik xolatni aytib o‘tishimiz to‘g‘ri keladi. Psixopatik – bu telbalik, telbanamo harakatlardir ya’ni shizofreniya. Biz yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda o‘smirlarni rasman psixopatlar deb ham ayta olmaymiz. Chunki o‘smirlar ham shizofreniya darajasiga bormaydi. Psixopatiyaning yengil ko‘rinishlari faqat bolaning rivojlanishi bosqichidagina ayrim hollarda ko‘zga tashlanadi.

Psixik taraqqiyotning o‘ziga xosligi shundaki u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko‘plab qarama – qarshiliklarni o‘z ichiga oladi. Bu taraqqiyot tashkil etilgan o‘quv faoliyati bola psixikasining muozanati va uning turli fikr o‘ylaridan chalg‘ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa diqqat, xotira tafakkur jarayoni rivojlanadi. Ayni shu davrda o‘smir mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko‘proq o‘z fikr o‘ylari dunyosida mushohada qilishi, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko‘paytirishga intiladi. Buning sababi yana o‘sha kattalikka o‘tish bo‘lib o‘smirda o‘ziga xos kattalik xissi paydo bo‘ladi. Shuning uchun xam maktabda berilgan mustaqillik va to‘g‘ri tashkil etilgan o‘qish sharoitlari, samiyilik muhiti unda mustaqil fikrlashga katta imkoniyatlar ochishni va unda ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin.

Mantiqan fikrlashga o‘rganish u esa unga o‘zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o‘ziga xos o‘smirlik egosentrizimining shakllanishiga butun olam va uning qonunlari unga bo‘ysunishidir. Insonni biologik, fiziologik psixologik o‘shining eng murakkab bosqichlaridan biri o‘smirlik yosh davridir. Ushbu yosh davri eng murakkab o‘zgarishlar, qayta qurishlar davri. Shu bilan birga og‘ir inqirozlar, salbiy xolatlar, kechinmalar davri hamdir.

Bolalarning balog‘at yoshi biologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu davr 11- yoshdan 14,15 yoshgacha davom etadi. Ana shu yillar davomida o‘g‘il- qizlar jismoniy jihatdan tez yetiladi. Butun a‘zolarida keskin fiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Unda o‘pka, yurak, jigar, taloq, buyrak jismlari kattalashadi. Bundan tashqari gavda tuzilishlari ham o‘zgaradi. Qo‘l – ayoq o‘sib, xatto ota – onaning ko‘ziga beso‘naqay ko‘rinadi. Lekin o‘smirda qon tomirlari kengayishi boshqa a‘zolar o‘shidan orqada qoladi, natijada qon tomirlarda qon bosimi ortadi. Bu esa unda noxushlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Ana shunga o‘xshash o‘zgarishlar ko‘pincha o‘smir ruhiyatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. U tajangroq, ba‘zida xuda behudaga injiqlik qiladigan, serzarda, gap ko‘tarmas bo‘lib qoladi. Shunday paytlarda ayrim ota – onalar boladagi o‘zgarishini kuzatib, uning yurish turishiga razm solib, so‘ng to‘g‘ri muomala qilish o‘rniga gohida “ey muncha qo‘pol beo‘xshov bo‘lib ketyapsan, xech narsaga qovushmaysan” deb uni ranjitib qo‘yadilar.

Ma‘lumki affektiv qo‘zg‘oluvchanlik ko‘p jihatdan o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi. Bu holat me‘yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ – endokrin jihatdan qayta qurilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu yosh davr xam biologik ham psixologik tomondan o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu o‘smir yosh davrining fenomini hamdir. Biologik o‘zgarishlar endokrin sistemasining qayta qurilishi bo‘lsa, psixologik o‘zgarishlar portlash va agrasessiyaga moyil bo‘ladigan affektiv qo‘zg‘oluvchanlikdir. Bu holat ko‘pincha ijtimoiy adabtatsiyaning buzilishini, jumladan qonunbuzarlikni sabablaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ammo psixik sog‘lom, atrof – muhitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o‘smirlarda affektiv qo‘zg‘oluvchanlik adabtatsiyaning buzilishiga olib kelmaydi. Statistikaning ko‘rsatishicha xar bir o‘ninchi jinoyat voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinarkan. Bu faktning ma‘nosi faqat qonunbuzarlar tomonidan yetkazilgan zarar bilan aniqlanmaydi albatta.

Bolalik, o‘smirlik yoshidagi buzilishlar va u bilan o‘xshash shaxs buzilishlarini qanday farqlash mumkin? – degan savol tug‘iladi. Shizoid buzilishlar – bolalik va o‘smirlik yoshidagi shizoid o‘zgarishlar diagnozi quyidagi sharoitlarda qo‘yiladi.

- A) patsientni o‘z tengqurlari ichida yaqin do‘sti bo‘lmasa
- B) umuman do‘st orttirishga qiziqmasa.
- V) o‘z tengqurlari bilan muloqotdan qoniqmasa

G) oila a'zolari, boshqa kishilardan, mashg'ulotdan qochsa.

D) guruhiy faollikka (hamroxlikdagi o'yinlar sport jamoasida ishtirok etishi) qiziqishning yo'qligi.

Ta'kidlash joizki qayd etilgan xususiyatlar ma'lum muddat saqlanadi yana surunkali shikastlanish bilan bog'liq depressiya oqibati bo'lishi mumkin. Ular yolg'izlikni yoqtiradilar lekin ularni ijtimoiy yolg'izlik azoblamaydi, ammo o'z yaqinlariga nisbatan yaqinlik bo'ladi, norasmiy muloqotlarning talab qiluvchi sharoitlar (lager, internat hayoti) va ijtimoiy vaziyatlarning yoqtirmaydilar. Tengqurlari bilan o'zlari bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni, o'z ayblarini ham yuklab qo'yadilar. Jur'atsizliklari bois har – xil bahonalar to'qiydilar. Bu xarakter axloqiy shizoid tipiga mos keladi. Uning ilk ko'rinishlari 2-2,5 yoshlarga to'g'ri keladi, ularning begonalardan qochishga intilishi, o'zгалardan qo'rqishlari va davdirashlari ammo oilaning eng yaqin kishilariga, oila a'zolariga bog'lanib qoladi.

O'smirlik yoshiga kelib bu xolat ularda jinsiy qiziqishlarning sekinlashuviga olib keladi.

A) xafagarchilikka asos bo'lmagan narsalarga xam kulgi bo'ldim deb qarashi, o'z g'ururini o'zгалar oldida toptalishi, o'zini "erga" urilgan deb qarashi va undan uyalishi, o'zгалar tomonidan o'zini xo'rlangandek xis qilishi.

B) xali uni tanqid qilmasliklaridan oldin, yaxshisi ular bilan umunosabat o'rnatmaslik

V) xo'rlanishdan qo'rqishi tufayli hammadan o'zini chetga tortishi

G) aslida o'zгалar tomonidan qabul qilinishini o'ylash.

D) o'z xatolaridan qayg'urishi va muvaffaqiyatlarni kamsitish, o'zini o'zi past baholashidan azoblanishi va boshqa begonalar bilan kechadigan har qanday aloqadan qiynaladi atrofdegilar ularni "ortiqcha" deb o'ylaydi va o'smirlik davriga xos bo'lgan giperkompeno'iatsiya reaksiyasi ularda uchraydi.

Ye) ota – ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga ichkilikka berilishini

Yo) oila a'zolari ichida sudlangan odamning uchrashi.

J) tengqurlarining salbiy ishlarga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatishi va hakoza.

Z) madniy – ma'rifiy ishlab chiqarishi va jamoatchilikni kamchiliklari.

O'smirlik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib bu davrda tananing intensiv tarzidagi rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomir xarakterlarida ham notekislik ro'y beradi va u bolani fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi, bular albatta asab tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bola tezda achchiqlanadigan yosh tormozlanishi yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqmaydigan tushkunlikda ham qolishi mumkin. O'smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog'at bo'lib u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham

belgilaydi. Shu bilan bog‘liq holda ongli (ko‘pincha ongsiz) jinsiy mayllar, shu bilan bog‘liq noxush xis – kamchiliklar fikrlar paydo bo‘ladiki, bola ularni asl sababini ham tushunib yetolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Tibbiyot psixologiyasi” Toshkent 2010
2. B.N.Sirliyev, N,Ismoilova, I.M.Xakimova “Stress va agressiya” Toshkent 2014
3. Baratov Sh. O`quvchi shaxsini o`rganish usullari. T.-1995 yil
4. G`oziyev Ye. va boshq. Psixologiya muammolari. T.-O`qituvchi, 1996 yil